

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.06.2020.K/B.91.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

XUDOYNAZAROV MUXRIDDIN SHUHRAT-O‘G‘LI

**GETEROSIKLIK TUZILISHGA EGA FITOGORMONLARNING
DIAZOL, TRIAZOLLI HOSILALARI VA ULARNING BIOLOGIK
FAOLLIGI**

02.00.10 – Bioorganik kimyo

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI OLISH
UCHUN YOZILGAN DISSERTATSIYA**

AVTOREFERATI

Guliston-2025

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on chemical sciences**

Xudoynazarov Muxriddin Shuhrat-o'g'li

Гетеросиклическое строение и их биологическая активность
Geterosiklik tuzilishga ega fitogormonlarning diazol, triazolli hosilalari va ularning
biologik faolligi

Худайназаров Мухриддин Шухрат угли

Диазольные, триазольные производные фитогормонов гетероциклического
строения и их биологическая активность22

Khudoynazarov Mukhriddin Shuhrat ugli

Diazole, triazole derivatives of phytohormones of heterocyclic structure and their
biological activity.42

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works46

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.06.2020.K/B.91.03RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

XUDOYNAZAROV MUXRIDDIN SHUHRAT-O‘G‘LI

**GETEROSIKLIK TUZILISHGA EGA FITOGORMONLARNING
DIAZOL, TRIAZOLLI HOSILALARI VA ULARNING BIOLOGIK
FAOLLIGI**

02.00.10 – Bioorganik kimyo (kimyo)

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI OLISH
UCHUN YOZILGAN DISSERTATSIYA**

AVTOREFERATI

Guliston-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/K895 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.siyes.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djurayev Tulkin Arziqulovich
biologiya fanlari bo‘yicha PhD, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Shomurotov Shavkat Abduganievich
kimyo fanlari doktori

Maulyanov Salixjan Alimjanovich
kimyo fanlari nomzodi, dots

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSC.03/05.06.2020.K/B.91.03 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «_____» _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140100, Guliston shahri, 4-mavze, universitet kampusi. Tel.: (99867) 225-24-90, e-mail: gdu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 120100, Guliston shahri, 4-mavze, universitet kampusi. Tel.: (99866) 233-38-73, e-mail: sies_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «_____» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Qo‘shiyev Habibjon Hojiboboyevich

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
biologiya fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Ugilay Koxxorovna

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi
biologiya fanlari doktori, professor

Xoshimova Nigora Rustamovna

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, biologiya fanlari doktori, katta
ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyaannotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Ma'lumki, jahonda o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini avjlantiruvchi, patogenlariga qarshi samarali ta'sir etuvchi tabiiy birikmalar asosida preparatlar yaratishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu tabiiy fiziologik birikmalar asosida yaratilgan preparatlarning minimal zaharlilik darajasiga ko'ra ekologik va hayotiy xavfsiz o'simlik mahsulotlari yetishtirishdagi dolzarbliligi bilan bog'liqdir. Bunda tabiiy fiziologik faol moddalar asosli birikmalar olish, ularning tuzilishi va spetsifik ta'sir etish xususiyati hamda faolligiga ko'ra foydalanishga tavsiya etilishiga alohida e'tibor berilmoqda. Shunga ko'ra ushbu yo'nalishdagi mavjud muammolar yechimi bilan bog'liq holda tabiiy fiziologik faol birikmalar hosilalarini olish ilmiy va amaliy jihatdan ahamiyatga egadir.

Dunyoning ko'pgina ilmiy markazlarida tabiiy fiziologik faol moddalar asosida personal ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan birikmalar olish, ularning kimyoviy tuzilishini tadqiq etish asosida hayotiy xavfsizligini aniqlash va kimyoviy sintetik vositalar o'rniga amaliyotda foydalanishga tavsiya etish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Bu yo'nalishda tabiiy manbalarda fiziologik faol moddalarni ajratish, ularning hosilalarini olish asosida modifikatsiya qilish, tuzilishi va biologik faollik ko'rsatkichlari, ta'sir etish xususiyatlarini aniqlash asosida yaratilgan preparatlarni amaliyotga joriy qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Shunga ko'ra tabiiy birikmalar asosida yaratilgan preparatlardan ekologik xavfsiz mahsulotlar olishda foydalanishga tavsiya etish muhim strategik ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda mahalliy xom – ashyolar asosida yangi, samarali, import o'rnini bosuvchi dorivor preparatlar ishlab chiqishga, o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi bosqichlarida tashqi biotik hamda abiotik stress omillar ta'sirini tabiiy fiziologik faol moddalar yordamida boshqarishning molekulyar mexanizmlarini aniqlash asosida muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida¹ “ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish” bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Shunga ko'ra, mamlakatimizda oziq-ovqat yo'nalishida muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan o'simlik mahsulotlarining ekologik xavfsizligini ta'minlash maqsadida patogenlarga qarshi samarali ta'sir etuvchi fungitsidlik xususiyatiga ega bo'lgan stimulyatorlar, o'simliklar chidamliligini oshiruvchi induktorlar yaratish ilmiy va amaliy jihatdan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5853-son hamda 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son farmonlari ijrosini ta'minlash

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28yanvardagi PF-60-son “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.

maqsadida: Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini oshirish bilan bog'liq holda g'alla va paxtadan yuqori hosil olishga erishish bo'yicha qarorlari hamda ushbu soha bo'yicha qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga erishish asnosida ushbu dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V "Qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish" va VII "Kimyo, kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar" kabi ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Jahonning ko'pgina yetakchi ilmiy markaz va oliy ta'lim muassasalarida o'simliklar chidamliligining molekulyar mexanizmlarini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jalik tashkiloti (FAO) ilmiy markazlarida olib borilgan tadqiqotlar asosida o'simliklarning stress omillarga chidamliligini oshirish asosida ekologik xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini yaratish, Vashington davlat universiteti (AQSh) olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida bioregulyatorlar yordamida o'simliklarning stress omillarga chidamliligini oshirish, Tottori University (Yaponiya) olimlari tomonidan o'simliklarning zamburug'li kasalliklariga qarshi samarali ta'sir etuvchi kimyoviy preparatlar yaratish, Biokimyo va genetika institutining Ufa ilmiy markazi (Rossiya) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini avjlantiruvchi hamda zamburug'li kasalliklariga qarshi ta'sir etuvchi fiziologik faol birikmalarni aniqlash bo'yicha olingan natijalar ilmiy tadqiqot jarayonlari hamda amaliy faoliyatda qo'llanilmoqda.

Mamlakatimizda mazkur yo'nalishda samarali ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, akad. O.S.Sodiqov (1946-1987), prof. O.S.Otroshenko (1972-1980), T.K.Yunusov (1985-2008), prof. S.A.Auelbekov (1992-1998), akad. Sh.I.Salixov (1998-2004), prof. A.O.Sodiqov (2000-2005), prof. D.N.Dalimov (1995-2015), prof. H.H.Qo'shiyev (1995-2024), prof. A.X.Xaitboev (2012-2024), dots. S.A.Maulyanov, professor A.A.Axunov 1998-2024, prof. M.B.Gafurov (2012-2024), prof. A.D.Matchanov (2015-2024), H.A.Yuldashev (2015-2024), R.S.Esanov (2018-2024) va boshqalar tomonidan tabiiy fiziologik faol moddalar asosida samarali va hayotiy xavfsiz birikmalar olinib, tibbiyot hamda qishloq xo'jaligi amaliyotiga tadbiq etilmoqda.

Dunyoda olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyat qismi tabiiy biologik faol moddalarni kimyoviy modifikatsiya qilish va ular asosida qishloq xo'jaligida yangi preparatlarni yaratish, foydalanish ularning tuzilishi va biologik faolligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, fitogormonlarning o'simlikka ta'siri hamda fungitsidlarning zamburug'lar bilan o'zaro ta'sir mexanizmlari chuqur o'rganilgan, lekin bir vaqtning o'zida ham fitogormonal hamda fungitsidlik xususiyatlarini

nomoyon qiladigan birikmalar va ularning ta'sir jarayonlari hozirgi kungacha to'liq o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universiteti "Agrobiotexnologiyalar va biokimyo ilmiy tadqiqot instituti" rejasidagi "O'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi biotik va abiotik omillar ta'sirini fiziologik faol birikmalar asosida boshqarish" mavzusida olib borilayotgan tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi geterosiklik tuzilishli fitogormonlar hamda 3-O-AGIKni o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini avjlantiruvchi, fungitsidlik xususiyatiga ega bo'lgan hosilalarini olishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ISK, IMK, NOK va NSKlarning xlorangidridlarini sintez qilish va ularning fizik-kimyoviy parametrlarini aniqlash;

GIK asosida 3-O-AGIKsintez qilish, tarkiban sof mahsulot olish uchun tozalash jarayonlarini amalga oshirish, 3-O-AGIKasosida 3-O-AGIK XA olish va uning fizik-kimyoviy parametrlarini aniqlash;

ISK XA, IMK XA, NOK XA va NSK XA asosida birlamchi amin tutgan diazol, triazol va 2,4-dixloranilin bilan amidlarni sintez qilish va ularning tuzilishini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar– UB (ultrabinafsha), IQ (infraqizil), ^1H va ^{13}C -YaMR spektroskopiyasi hamda mass-spektrometriya usullaridan foydalanib aniqlash;

3-O-AGIK XA asosida birlamchi amin tutgan diazol va 2,4-dixloranilin bilan amidlarni sintez qilishva ularning tuzilishini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar– UB (ultrabinafsha), IQ (infraqizil), ^1H va ^{13}C -YaMR spektroskopiyasi hamda mass-spektrometriya usullaridan foydalanib aniqlash;

sintez qilingan birikmalarning bug'doyning unish-rivojlanishi hamda zamburug'li kasalliklarga ta'sirini o'rganish va baholash.

Tadqiqotning obykti sifatida geterotsiklik tuzilishga ega bo'lgan fitogormonlar, triterpen kislota- GIK, birlamchi amin tutgan diazol va triazol birikmalar, di xlor anilin, bug'doy hamda fuzarium zamburug'ining turlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini auksinlar va GIKdan 3-O-AGIK hamda ularning xlorangidridlarini sintez qilish, Auksinlarning va 3-O-AGIKning yangi amidlarini sintez qilish, ularning kimyoviy tuzilishini va biologik faolligini o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida organik va bioorganik kimyo (filtrlash, qayta kristallash, haydash, ekstraksiya, neytrallash, fizik-kimyoviy (UB, IQ-spektroskopiya, ^1H , ^{13}C YaMR-spektroskopiya, mass-spektrometriya tahlili usullari), xromatografik (YuQX, YuSSX), *in vitro* sharoitda o'simliklarni yetishtirish hamda tadqiqot natijalari SPSS-17 statistik tahlili dasturi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor indol-3-sirka va indol-3-moy kislotalarning diazol, triazol va 2,4-dixlor anilin bilan yangi amidlari (8 ta) sintez qilinib, ular orasida ISK 3-API amidi

fitogormonal hamda fungitsidlik xususiyati bor bo'lgan gibridd modda ekanligi aniqlangan;

3-O-AGIKning diazol va 2,4-dixlor anilin bilan yangi amidli birikmalarini sintez qilishning optimal sharoitlari aniqlangan va olingan birikmalarning kimyoviy tuzilishi, YaMR, PMR va mass-spektrometriya usullari yordamida isbotlangan;

1-naftil sirka va 2-naftoksi sirka kislotalarining diazol, triazol va 2,4-dixlor anilin bilan yangi amidlari (8 ta) sintez qilinib, ularning tuzilishi (UB-, IQ-, ^1H , ^{13}C YaMR-spektroskopiya, mass-spektrometriya) yordamida isbotlangan;

geterohalqali tuzilishga ega fitogormonlarning hosil qilingan triazolli hosilalari va 2,4-dixlor anilin bilan ISK 3-API amidi bug'doy doni unuvchanligini oshirish hamda nihollarning o'sish-rivojlanishini avjlantirish va zamburug'li kasalliklariga qarshi samarali ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Indol-3-sirka, indol-3-moy, 1-naftil sirka va 2-naftoksi sirka kislotalarining diazol, triazol va 2,4-dixlor anilin bilan hosil qilingan birikmalari o'simliklarning unuvchalik ko'rsatkichini oshirgan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

geterohalqali tuzilishga ega fitogormonlarning triazolli hosilalari bug'doy donining unuvchanligini oshirish hamda nihollarning o'sish-rivojlanishini avjlantirish xususiyatlariga ko'ra amaliyoga joriy qilingan;

indol-3-sirka, indol-3-moy, 1-naftil sirka va 2-naftoksi sirka kislotalarining diazol, triazolli hosilalari zamburug'li kasalliklariga qarshi samarali ta'sir etuvchi fungitsidlik xususiyatlari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

patogen zamburug'larga qarshi eng yaxshi faollikni sintez qilingan birikmalar ichida ISK 3API amidini iqtisodiy samaradorligi baholangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi sintez qilib olingan moddalarni tadqiq qilishda zamonaviy fizik-kimyoviy va biologik tadqiqot usullaridan foydalanilganligi, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy anjumanlarda muhokama etilganligi, tajribalar natijalarini O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK tomonidan tan olingan mahalliy va xalqaro ilmiy jurnallarida chop etilganligi bilan asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati indol-3-sirka va indol-3-moy kislotalari, 3-O-AGIK, 1-naftil sirka va 2-naftoksi sirka kislotalarining, diazol, triazol va 2,4-dixlor anilinlar bilan yangi amidlari sintez qilinib, UB-, IQ-, ^1H , ^{13}C YaMR-spektroskopiya, mass-spektrometriya usullari yordamida fizik-kimyoviy kattalıkları isbotlanganligi geterosiklik birikmalarning yangi avlod hosilalarini olishning ilmiy nazariy qonuniyatini ishlab chiqish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati geterosiklik tuzilishga ega fitogormonlarning triazolli, diazolli hosilalarining bug'doy donining unuvchanligini oshirish ko'rsatkichlari hamda nihollarning o'sish-rivojlanishini avjlantirish va zamburug'li kasalliklariga qarshi samarali ta'sir etuvchi fungitsidlik xususiyatlariga ega ekanligi isbotlanganligi o'simliklarni

o'sishi va rivojlanishida biotik, abiotik omillar ta'sirini boshqarish asosida hosildorligi hamda hosil sifatini oshirishda ahamiyatli ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Geterosiklik tuzilishli fitogormonlarning diazol, triazolli hosilalari olish hamda ular asosida o'simliklarning o'sish-rivojlanishini avjlantiruvchi va fungitsidlik xususiyatiga ega bo'lgan vositalar yaratish natijalariga ko'ra:

sintez qilingan IMK-3AT (indol-3-moy kislotaning 3-amino-1,2,4-triazol amidi), IMK-4AA (indol-3-moy kislotaning 4-aminoantipirin amidi), ISK-4AA (indol-3-sirka kislotaning 4-aminoantipirin amidi), ISK-3API (indol-3-sirka kislotaning N-(3-aminopropil)-imidazol amidi, ISK-3AT (indol-3-sirka kislotaning 3-amino-1,2,4-triazol amidi) preparatlaridan IL-4821023150 raqamli "Guliston davlat universiteti "Sho'rga chidamli o'simliklar genbanki"dagi istiqbolli o'simliklar germoplazmalarini Orolning suvi qurigan tubi maydonlariga ekish" mavzusidagi innovatsion loyihada Orol dengizining "nol nuqta"siga cho'g'on, saksavul, olabuta (*Atrplex holimus*, *Atrplex undalata*), baliqko'z, sho'rak, donasho'r, qora barak, teresken, bargsiz qandim, meduzasimon qandim, cherkez, quyonjun urug'larini ekishda ishlov berishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 10.04 dagi 4/17-2025-7-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ishlov berilgan variantlarda 50-55% urug'lar unib chiqishi (nazoratda 22-28%), o'simlik nihollarining biotik stress omillarga chidamliligini oshirish imkonini bergan.

Sintez qilingan indol-3-moy kislotaning 4-aminoantipirin amidi(IMK-4AA), indol-3-sirka kislotaning N-(3-aminopropil)-imidazol amidi(ISK-3-API), indol-3-sirka kislotaning 3-amino-1,2,4-triazol amidlari (ISK-3-AT) Boyovut tumanidagi "Ezgu niyat samarasi" fermer xo'jaligiga qarashli sho'rlangan tuproq sharoitda g'alla yetishtirish jarayonida ekishdan oldin urug'larga ishlov berish va vegetativ rivojlanish bosqichlarida nihollarni o'sishi va rivojlanishini avjlantiruvchi stimulyator sifatida ekin maydonlarida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Fermerlar kengashining 2024-yil 4-iyuldagi 01/03-1220 sonli ma'lumotomasi). Natijada bug'doyning unuvchanligi preparatlar bilan ishlov berilgan variantlarda 95-98% (nazoratda esa 87-88%) bo'lib, ildiz chirish va nihollarning zamburug'li kasalliklar bilan kasallanish holati kuzatilmaganligiga ko'ra bug'doy doni hosildorligini 75 sentnerga (nazoratda esa 71 sentner) oshirish imkonini bergan.

indol-3-moy kislotaning 4-aminoantipirin amidi (ISK 4-AA) birikmasining 10^{-5} M konsenratsiyali eritmali Boyovut tumanidagi "Ezgu niyat samarasi" fermer xo'jaligiga qarashli ekin maydonlarida bug'doy nihollarining vegetativ rivojlanish bosqichlarida nihollarning kasallanishini olish maqsadida tadbiiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Fermerlar kengashining 2024 yil 4 iyuldagi 01/03-1220 sonli ma'lumotomasi). Natijada o'simlik nihollarining biotik omillarga nisbatan immunitetini nazoratga nisbatan 2 barobar oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi OAKning falsafa doktori (PhD) dissertasiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 1 ta xorijiy va 2 ta respublika jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, 4 bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovadan iborat bo'lib hajmi 105 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiyaning kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Geterosiklik birikmalar, ularning hosilalari va kimyoviy hamda biologik xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi bobi adabiyotlar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, geterotsiklik birikmalar va ularning hosilalarining kimyoviy va biologik faolliklari bo'yicha adabiyotlardagi manbalarning tahlillari keltirilgan. Bob so'ngida bob bo'yicha umumiy xulosalar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Geterosiklik birikmalarning diazol va triazoli hosilalari sintezi va ularning xususiyatlari”**, deb nomlangan II bobida geterosiklik birikmalarning diazol va triazollar bilan hosilalari sintezi bo'yicha ma'lumotlar bayon qilinib, muallif tomonidan olingan yangi hosilalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari, spektral ma'lumotlarini tahlil etishga bag'ishlangan.

Ma'lum usullar yordamida ISK, IMKning xlorangidridlari sintez qilingan. Olingan xlorangidridlar asosida qator amidlari sintez qilingan hamda ularning fizik-kimyoviy parametrlari (1-jadval), aniqlangan. Sintez qilingan amidlarning tuzilishlari UB-, IQ- ^1H , ^{13}C YaMR-spektroskopiya, mass-spektrometriya usullari asosida o'rganilgan.


ISK, IMKning (3-propil imidazol, 4-amino antipirin, 3-amino 1,2,4-triazol, 2,4-dixloranilin) bilan amidlari sintezi quyidagi sxema asosida olib borildi.



Bu yerda:

$n = 1, 3$

R=



1-sxema. ISK va IMK amidlari sintezi

1-jadval

ISK va IMK amidlarining ayrim fizik-kimyoviy parametrlari

n=	R=	Moddalar	Mr,g/ mol	T.s. °C	Brutto formulasi	R _f	Eruvchanligi
1	a	ISK 4-AA	360	168±1	C ₂₁ H ₂₀ N ₄ O ₂	0.47	DMSO, DMF, TGF, xloroform, etil atsetat
1	b	ISK 3-API	241	152±1	C ₁₂ H ₁₁ N ₅ O	0.46	DMSO, DMF, TGF, xloroform, etil atsetat
1	c	ISK 3-AT	282	164±1	C ₁₆ H ₁₈ N ₄ O ₂	0.58	DMSO, DMF, TGF, xloroform, etil atsetat
1	d	ISK 2,4-DXA	319	178±1	C ₁₆ H ₁₂ Cl ₂ N ₂ O	0.61	DMSO, DMF, TGF, xloroform, etil atsetat
3	a	IMK 4AA	388	160±1	C ₂₃ H ₂₄ N ₄ O ₂	0.44	DMSO, DMF, TGF, xloroform, etil atsetat
3	b	IMK 3-API	269	157±1	C ₁₄ H ₁₅ N ₅ O	0.58	DMSO,DMF,TGF, xloroform, etil atsetat
3	c	IMK 3-AT	310	153±1	C ₁₈ H ₂₂ N ₄ O	0.68	DMSO,DMF,TGF, xloroform, etil atsetat
3	d	IMK 2,4-DXA	347	173±1	C ₁₈ H ₁₆ Cl ₂ N ₂ O	0.66	DMSO,DMF,TGF, xloroform, etil atsetat

Sistema-geksan:aseton 2:1

ISKning 3-aminopropilimidazol bilan hosil qilgan amidining IQ-spektri boshlang'ich modda ISKsi IQ-spektriga taqqoslangan holda o'rganildi. ISK IQ-spektrida aromatik halqadagi C-H guruhlariga valent tebranishlariga tegishli to'liq sonlari 3045 sm^{-1} da, CH₂- guruhi valent tebranishlariga tegishli to'liq sonlar esa 2909 sm^{-1} da hamda pirrol halqasidagi N-H guruhi valent tebranishlariga tegishli to'liq sonlari 3383 sm^{-1} da kuzatilgan.

1688 sm^{-1} da karbonil (C=O) guruhi valent tebranishlariga tegishli, shuningdek, 1490 sm^{-1} da aromatik halqadagi C=C bog'larining valent tebranishlariga tegishli to'liq sonlari kuzatilgan. ISKning 3-aminopropilimidazol bilan hosil qilgan amidining IQ-spektrida 3393 sm^{-1} , 3234 sm^{-1} sohalarda NH guruhlariga valent tebranishlariga tegishli to'liq sonlari, 2918 sm^{-1} da -CH₂- guruhi valent tebranishlariga tegishli, 1716 sm^{-1} da esa karbonil (C=O) guruhi valent tebranishlariga tegishli to'liq sonlari kuzatilgan. 1628 sm^{-1} da C=N bog'ining, 1512 sm^{-1} da aromatik halqadagi C=C 1340 sm^{-1} da C-N bog'i valent tebranishlariga tegishli to'liq sonlari ham namoyon bo'lgan. Ushbu birikma IQ-spektrida karbonil guruhiga tegishli to'liq sonlari qiymati 1688 sm^{-1} dan (boshlang'ich

moddada) 1716 cm^{-1} (reaksiya mahsulotida)ga qadar kuchli maydon tomonga siljishi amid bog‘ining hosil bo‘lganligidan dalolat beradi.

2-jadval

ISK va IMK amidlarining ayrim spektralqiymatlari


№	Moddalar	UB λ_{max} , nm	IQ-spektrdagi asosiy to‘lqin sonlari, cm^{-1}
1	ISK 4AA	292	3058-2923 (Ar-H), 3208 (N-H), 1647 (C=O), 3363 (N-H).
2	ISK 3-API	283	3107-2876 (Ar-H), 3235 (N-H), 1640 (C=O), 3374 (N-H), 1449 (C-N).
3	ISK 3-AT	285	3057-2856 (Ar-H), 3261 (N-H), 1650 (C=O).
4	ISK 2,4-DXA	254	3079-2853 (Ar-H), 3254 (N-H), 1678 (C=O), 3353 (N-H), 1449 (C-N), 1503 (Ar(C ₆ H ₆)), 600 (C-Cl).
5	IMK 4AA	283	3048-2860 (Ar-H), 3215 (N-H), 1637 (C=O), 1451 (C-N), 1496 (Ar(C ₆ H ₆)).
6	IMK 3-API	283	3060-2870 (Ar-H), 3140 (N-H), 1719 (C=O), 3236 (N-H), 1641 (C=N) 1444 (C-N).
7	IMK 3-AT	283	3057-2870 (Ar-H), 3301 (N-H), 1706 (C=O), 1447 (C-N).
8	IMK 2,4-DXA	254	3058-2867 (Ar-H), 3294 (N-H), 1707 (C=O), 1450 (C-N), 1507 (Ar(C ₆ H ₆)), 608 (C-Cl).

Ishimizning navbatdagibosqichida ISK amidining (3-aminopropilimidazol 1H-indol-3-sirkakislotaamidi) molekulyar massasimass-spektrometriya usulidan foydalanib tadqiq qilindi (2.2-rasm). Bunda olingan massspektrda molekulyar ion ($[M+]$ 283.15883 m/z.) mavjudligi va uning nazariy jihatdan hisoblangan molekulyar ion bilan mos kelish sintez qilingan birikma N (propilimidazol-3-il-4(benzo[b]pirrol-3-il) etanamidekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlardan ma’lumki ISK ning UB-spektrida yutilish maksimumi 228-230 nm da intensiv holatdagi yutilish cho‘qqisini ($\pi \rightarrow \pi^*$ elektron o‘tishlar). 280-290 nm da o‘rtacha intensiv holatdagi yutilish cho‘qqisi ($n \rightarrow \pi^*$ elektron o‘tishlar) kuzatilishi, 96% li etanoldagi eritmasida esa 222 va 282 nmlarda yutilish berishi keltirilgan [151; 247-257-p.]. ISK 3-amino propil imidazol amidning UB-spektrida yutilish maksimumi 220 va 293 nmlarda kuzatilgan. Olingan amidning UB-spektrida qisman “bataxrom” siljish kuzatilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Sintez qilingan amidlarning ^1H va ^{13}C YaMR-spektri adabiyotlardagi YaMR spektroskopiya ma’lumotlarga asoslangan holda tahlil qilindi.


Quyida ISK 3API amidining ^1H YaMR spektri keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. ISK 3API amidining ^1H YaMR-spektri

N-(3-(1H-imidazol-1-il) propil)-2-(1H-indol-3-il) atsetamidning ^1H YaMR-spektrida amid guruhining vodorodiga tegishli rezonans signal δ_{H} 8.53 m.u da keng shakldagi singlet holatda kuzatilganligi amid bog‘ining hosil bo‘lganligidan dalolat beradi. Indol halqadagi N ga bog‘langan vodorod atomining signali 11.63 m.u. da namoyon bo‘lgan. Bundan tashqari molekuladagi metilen guruhlarining protonlari signallari kuchli maydonda δ_{H} 2.089 -2.937 m.u.larda kuzatilganligi barcha signallarning ISK molekulasidagi protonlarga hos ekanligidan dalolat beradi.

N-(3-(1H-imidazol-1-il)propil)-2-(1H-indol-3-il) atsetamidning ^{13}C YaMR-spektrlarida (2-rasm), molekuladagi C-1, C-8 gacha bo‘lgan uglerod atomlariga tegishli signallar kuchsiz maydon sohasida (110.96, 136.47 m.u.) kuzatildi. C-9, C-1’, C-2’ C-3’ uglerod atomlariga oid signallar kuchli maydon sohasida 31.01, 35.59, 39.1, 43.812 m.u.larda molekuladagi C-10 atom signali 171.11 m.u. da, imidazol qoldig‘idagi uglerod atomlari kuchsiz maydon tomonda namoyon bo‘lgan.




2-rasm.ISK 3API amidining ^{13}C YaMR-spektri

Barcha uglerod atomlarining kuzatilgan signallari molekulaning tuzilishini tasdiqlaydi. 123.0 (C-1), 110.96 (C-2), 118.67 (C-3), 119.28 (C-4), 121.94 (C-5),

113,49 (C-6), 136.47 (C-7), 126.92 (C-8), 35.59 (C-9), 171.11 (C-10), 39.1 (C-1'), 43.812 (C-2'), 30.62 (C-3)136.47 (C-4'), 125.37 (C-5'), 119.12 (C-6').

Naftil sirka(NSK) kislota va naftiloksi sirka(NOK) kislotaamidlarini olish


Tadqiqotimiz davomida NSK va NOKning 3-propil imidazol, 4-amino antipirin, 3-amino 1,2,4-triazol, 2,4-dixloranilin bilan amidlari sintezi amalga oshildi (2-sxema). Olingan amidlarning ayrim fizik-kimyoviy paramentrlari3-jadvalda keltirilgan.



Bu yerda:

X = -CH₂-, -OCH₂-

R=



2-sxema. NSKvaNOKamidlarisinteziumumiyaaksiyasxemasi

3-jadval

NSK va NOK amidlarningayrim fizik-kimyoviy parametrlari

X=	R=	Moddalar	Mr,g/ mol	T.s. °C	Brutto formulasi	R _f	Eruvchanligi
-CH ₂ -	a	NSK 4-AA	371	142±1	C ₂₃ H ₂₁ N ₃ O ₂	0.33	DMSO,DMF,TGF, xloroform, etil atsetat
-CH ₂ -	b	NSK 3-API	252	139±1	C ₁₄ H ₁₂ N ₄ O	0.38	DMSO,DMF,TGF, xloroform, etil atsetat
-CH ₂ -	c	NSK 3AT	293	156±1	C ₁₈ H ₁₉ N ₃ O	0.42	DMSO,DMF,TGF, xloroform, etil atsetat
-CH ₂ -	d	NSK 2,4-DXA	330	186±1	C ₁₈ H ₁₃ Cl ₂ NO	0.36	DMSO,DMF,TGF, xloroform, etil atsetat
-OCH ₂ -	a	NOK 4-AA	388	80±1	C ₂₃ H ₂₁ N ₃ O ₃	0.71	DMSO,DMF,TGF, xloroform, etil atsetat
-OCH ₂ -	b	NOK 3-API	268	142±1	C ₁₄ H ₁₂ N ₄ O ₂	0.70	DMSO,DMF,TGF, xloroform, etil atsetat
-OCH ₂ -	c	NOK 3AT	309	167±1	C ₁₈ H ₁₉ N ₃ O ₂	0.76	DMSO,DMF,TGF, xloroform, etil atsetat
-OCH ₂ -	d	NOK 2,4-DXA	346	179±1	C ₁₈ H ₁₃ Cl ₂ NO ₂	0.61	DMSO,DMF,TGF, xloroform, etil atsetat

Sistema- xloroform: metanol25:1

Sintez qilingan amidlarning IQ spektrlari dastlabki moddalar spektrlariga taqqoslab o'rganildi. Buning uchun NSKning IQ-spektridagi asosiy xarakteristik tebranish sohaslarini ko'rib chiqish zarur bo'ladi: 1690 sm^{-1} da karbonil qismiga tegishli valent tebranishlar kuzatiladi. Bundan tashqari 2840-3060 sm^{-1} da NSK molekulasining OH guruhiga tegishli to'liq sonlari namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich modda hisoblangan–NSKsining IQ-spektrida aromatik halqadagi C-H guruhlari valent tebranishlariga tegishli to'liq sonlari 3054 sm^{-1} da, CH_2 - guruhi valent tebranishlariga tegishli to'liq sonlar 2922 sm^{-1} da, OH guruhi valent tebranishlariga tegishli to'liq sonlar 3300-2600 sm^{-1} (keng yelka)da namoyon bo'lgan. Ushbu moddada 1690 sm^{-1} da karbonil (C=O) guruhi valent tebranishlariga tegishli to'liq sonlar, shuningdek aromatik halqadagi C=C bog'larining valent tebranishlariga tegishli to'liq sonlari 1512 sm^{-1} da mavjudligi bilan xarakterlanadi.

NSKning 3-aminotiazol bilan hosil qilgan amidining IQ-spektrida esa 3416 sm^{-1} , 3285 sm^{-1} larda NH guruhlari valent tebranishlariga tegishli to'liq sonlari, 3067 sm^{-1} da triazol halqasidagi C-H bog'i valent tebranishiga tegishli to'liq sonlari, 3054 sm^{-1} da aromatik halqadagi C-H guruhlari valent tebranishlariga tegishli to'liq sonlari kuzatilgan. 2922 sm^{-1} da CH_2 -guruhi, 1714 sm^{-1} da karbonil (C=O) guruhi, 1628 sm^{-1} va 1552 sm^{-1} larda C=N bog'ining hamda 1512 sm^{-1} da aromatik halqadagi C=C bog'larining valent tebranishlariga tegishli to'liq sonlari kuzatilgan. Bundan tashqari 1380 sm^{-1} va 1150 sm^{-1} larda C-N bog'i valent tebranishlariga tegishli to'liq sonlari ham namoyon bo'lgan. Reaksiya mahsulotining IQ-spektrida karbonil guruhiga tegishli to'liq soni 1690 sm^{-1} (boshlang'ich moddada)dan 1714 sm^{-1} (reaksiya mahsulotida)ga qadar kuchli maydon tomon siljiganligidan amid bog'i hosil bo'lgan deb, xulosa qilish mumkin

4-jadval


NSK va NOK amidlarining ayrim spektral qiymatlari

No	Moddalar	UB λ_{max} , nm	IQ-spektrdagi asosiy to'liq sonlari, sm^{-1}
1	NSK 4-AA	292	3044-2926 (Ar-H), 3139 (N-H), 1648 (C=O), 1447 (C-N), 1490 (Ar(C ₆ H ₆))
2	NSK 3-API	293	3048-2873 (Ar-H), 3268 (N-H), 1711 (C=O), 1644 (C=N) 1438 (C-N), 1510 (Ar(C ₆ H ₆))
3	NSK 3-AT	280	3057-2870 (Ar-H), 3301 (N-H), 1706 (C=O), 1447 (C-N).
4	NSK 2,4-DXA	254	3060-2922 (Ar-H), 3280 (N-H), 1655 (C=O), 1469 (C-N), 1517 (Ar(C ₆ H ₆)), 623 (C-Cl).
5	NOK 4-AA	254	3056-2922 (Ar-H), 3195 (N-H), 1654 (C=O), 1454 (C-N), 1490 (Ar(C ₆ H ₆)), 1213 (C-O-C).
6	NOK 3-API	256	3050-2846 (Ar-H), 3274 (N-H), 1660 (C=O), 1454 (C-N), 1628 (C=N), 1500 (Ar(C ₆ H ₆)), 1216 (C-O-C).
7	NOK 3-AT	254	3060-2847 (Ar-H), 3324 (N-H), 1734 (C=O), 3402 (N-H), 1469 (C-N), 1628 (C=N), 1509 (Ar(C ₆ H ₆)), 1212 (C-O-C).
8	NOK 2,4-DXA	256	3056-2908 (Ar-H), 3382 (N-H), 1696 (C=O), 1467 (C-N), 1512 (Ar(C ₆ H ₆)), 640 (C-Cl).

NSK 3-AT amidining (3-amino 1,2,4-triazol naftil sirka kislota amidi) molekulyar massasini mass-spektrometriya usulidan foydalanib tadqiq qilindi. Bunda olingan mass-spektrda molekulyar ionga xos massaning ($[M^+]$ 253.14490 m/z.) mavjudligi sintez qilingan birikma N-1,2,4-triazol-3-il-2 (1-naftil) etanamid ekanligidan dalolat beradi.

NSKning UB spektridagi yutilish maksimumi (λ_{max}), asosan, 230 nm atrofida kuzatilgan. Bu yutilish maksimumi molekuladagi aromatik halqaning elektron o'tkazuvchi xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, NSKning $\pi \rightarrow \pi^*$ elektron o'tishlar natijasidir. Shuningdek, NSK molekulasi 283 nm da ham boshqa yutilish cho'qqilariga ega. NSKning 3-amino 1,2,4-triazol bilan hosil qilgan amidining UB-spektrida yutilish maksimumi 217 hamda 280 nm larda kuzatilgan bo'lib, olingan amidning UB-spektrida qisman "gipsaxrom" siljish namoyon bo'lgan.


Sintez qilingan amidlarning 1H va ^{13}C YaMR-spektri adabiyotlardagi YaMR spektroskopiya ma'lumotlarga asoslangan holda tahlil qilindi. 2-(naftalen-1-il)-N-(1H-1,2,4-triazol-3-il) atsetamidning 1H YaMR-spektrida amid guruhining vodorodiga tegishli rezonans signallar δ_H 10.3 m.u da keng shakldagi singlet holatda kuzatilganligi amid bog'ining hosil bo'lganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari molekuladagi metilen guruhining protonlari signallari kuchli maydonda δ_H 4.752 m.u larda kuzatildi (3-rasm).



3-rasm. NSK 3-AT amidining 1H YaMR spektri

2-(naftalin-1-il)-N-(1H-1,2,4-triazol-3-il) atsetamid naftil halqadagi C-1 - C-10 atomidagi proton signallari singlet, duplet holatlarda δ_H 7.309-7.949 m.u. danamayon bo'lgan. Barcha signallar NSK molekulasidagi protonlarga hos ekanligini ko'rsatdi.

2-(naftalin-1-il)-N-(1H-1,2,4-triazol-3-il)atsetamidning ^{13}C YaMR-spektrida (4-rasm) molekuladagi C-4, dan C-8 gacha hamda C-1 uglerod atomlariga tegishli signallar kuchsiz maydon sohasida (123.67, 129.55 m.u.) kuzatilgan. C-11, uglerod atomlariga oid signallar kuchli maydon sohasida 38.49 m.u. larda, molekuladagi C-12 atom signali 171.13 m.u. da, triazol qoldig'idagi uglerod atomlari kuchsiz maydon tomonda namoyon bo'lgan.




4-rasm. NSK 3-AT amidi ^{13}C YaMR spektri

Barcha uglerod atomlarining kuzatilgan signallari molekulaning tuzilishini tasdiqlaydi(4-rasm): 123.67 (C-1), 133,19 (C-2), 131.85 (C-3), 129.62 (C-4), 128.23 (C-5), 125,80 (C-6), 125.19 (C-7), 124.95 (C-8), 125.85 (C-9), 129.55 (C-10), 38.44 (C-11), 171.13 (C-12), 156.96 (C-1'), 150.70 (C-2')

3-O-atsetil-18 β -H-glitsirret(3-O-AGIK) kislotalari amidlari sintezi

Ma'lum usullar yordamida GKMAT hamda GIK olinib, GIKdan 3-O-AGIKni va uning, amidlari sintez qilindi (3-sxema) hamda ularning fizik-kimyoviy parametrlari(5-jadval), aniqlandi. 3-O-AGIKning ayrim (3-amino propil imidazol va 2,4-dixloranilin) aminlar bilan amidlari sintez qilindi. Olingan amidlarning tuzilishlari UB-, IQ- ^1H , ^{13}C YaMR-spektroskopiya, mass-spektrometriya usullari asosida o'rganildi.



3-sxema. 3-O-AGIKamidlarini olish reaksiya tenglamasi

3-O-AGIK amidlarining ayrimfizik-kimyoviyparametrlari

Moddalar	Mr,g/mol	T.s. °C	Brutto formulasi	Rf	Eruvchanligi
3-O-AGIK 3-API	619	183±1	C ₃₈ H ₅₇ N ₃ O ₄	0.68	DMSO,DMF,TGF, xlороform, etil atsetat
3-O-AGIK 2,4-DXA	656	266±1	C ₃₈ H ₅₁ O ₄ NCl ₂	0.55	DMSO,DMF,TGF, xlороform, etil atsetat

Sistema- geksan: etilatsetat 3:2

3-atsetoksiglitsirret kislotasi amidlarining IQ spektrlari dastlabki moddalar spektriga taqqoslab o'rganildi. Buning uchun 3-O-AGIKning IQ spektridagi asosiy xarakteristik tebranish chastotalariga mos keluvchi yutilish chiziqlarini ko'rib chiqish zarur bo'ladi: 3304 cm^{-1} da C-30 holatdagi OH guruhi, 1703 cm^{-1} da esa uning karbonil guruhining valent tebranishlariga tegishli yutilish chiziqlari kuzatiladi. Bundan tashqari 1724 cm^{-1} da 3-O-AGIK molekulasining C-3 holatidagi karbonil guruhining valent tebranishiga tegishli yutilish chiziqlari namoyon bo'ladi.

3-O-AGIK ning 2,4-dixlor anilin bilan olingan amidning IQ-spektrida quyidagi yutilish chiziqlari kuzatildi: dastlabki modda 3-O-AGIK ning 3304 cm^{-1} dagi C-30 atomidagi OH bog'ining valent tebranshiga xos yutilish chizig'ining amid IQ spektrida kuzatilmaganligi, 3430 cm^{-1} da NH bo'g'ining valent tebranishiga xos bo'lgan yutilish chizig'ining mavjudligi, shuningdek amid bo'g'ining hosil bo'lishi sababli 3-O-AGIK IQ spektrida 1704 cm^{-1} kuzatilgan C=O bo'g'ining valent tebranishlariga xos yutilish chiziqlarining C-3 atomining atsetil guruhidagi C=O guruhi valent tebranishiga tegishli bo'lgan yutilish chizig'i bilan birga 1724 cm^{-1} da namoyon bo'lishi amid bog'ining hosil bo'lganligidan dalolat bersa, amid IQ spektrida 1503 cm^{-1} , 699 cm^{-1} sohalarida benzil radikalining aromatik halqasiga hos valent va deformatsion tebranishlariga tegishli yutilish chiziqlarining kuzatilishi amidning tuzilishiga mos keladi.


3-O-AGIKamidlarining ayrim spektralqiymatlari

Moddalar	UB λ_{max} , nm	IQ-spektrdagi asosiy to'lqin sonlari, cm^{-1}
3-O-AGIK 3-API	254	2989-2923 (Ar-H), 3326 (N-H), 1730 (C=O), 3433 (N-H), 1641 (C=N) 1447 (C-N).
3-O-AGIK 2,4-DXA	250	2989-2867 (Ar-H), 3394 (N-H), 1760 (C=O), 1450 (C-N), 1507 (Ar(C ₆ H ₆)), 608 (C-Cl).

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida 3-O-AGIK 2,4-dixloranilin amidining (N-(2,4-dixloranilin)-3- β -asetil-11-okso-olean-12-en-18 β -H-30-amid) molekulyar massasi mass-spektrometriya usulidan foydalanib aniqlanildi. Bunda molekulyar ion ([M⁺] 656.42380 m/z.) mavjudligi va uning nazariy jihatdan hisoblangan molekulyar ion bilan mos kelishi sintez qilingan birikma N-(2,4-dixloranilin)-3- β -asetil-11-okso-olean-12-en-18 β -H-30-amid ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlardan ma'lumki, GIK ning UB-spektrida yutilish maksimumi 256 nm namoyon bo'ladi, bu GIK molekulasining «C» halqasidagi karbonil guruhi bilan konyugirlangan qo'shbog'ga tegishli bo'lgan $n \rightarrow \pi^*$ elektron o'tishlarga xos bo'lgan holatdir. 3-O-AGIKning 2,4-dixlor anilin bilan olinganamidning UB-spektrida yutilish maksimumi 250 nm da kuzatilgan. Olingan amidning UB-spektrida qisman «gipsoxrom» siljishi namoyon bo'lganligidan dalolat beradi.


N-(2,4-dixlor anilin)-3-O- β -asetil-11-okso-olean-12-en-18 β -H-30-amidning ^1H YaMR-spektridaamid guruhining vodorodiga tegishli rezonans signallar δ_{H} 8.905 m.u da keng shakldagi singlet holatda kuzatilganligi amid bog'ining hosil bo'lganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari molekuladagi metil guruhlarning protonlari signallari kuchli maydonda δ_{H} 0.811 -1.388 m.u larda kuzatildi.



5-rasm.3-O-AGIK 2,4-DXA amidining ^1H YaMR-spektri

Atsetat qoldig'idagi uchta protonning signallari singlet holatda δ_{H} 1.99 m.u.da hosil bo'lgan. Molekulaning C-3 holatidagi protonga tegishli bo'lgan signallar δ_{H} 4.402-4.429 m.u.da dublet-dublet holatda namoyon bo'lgan. C-12 dagi qo'shbog'ning protoni δ_{H} 5.60 m.u.da singlet holatda kuzatildi hamda barcha signallar 3-O-AGIK molekulasidagi protonlarga xos ekanligini ko'rsatdi(5-rasm).

N-(2,4-dixlor anilin)-3-O- β -atsetil-11-okso-olean-12-en-18 β -H-30-amidning ^{13}C YaMR-spektrida (6-rasm) molekuladagi C-1, C-2 uglerod atomlariga tegishli signallar kuchli maydon sohasida (37.39, 22.98 m.u.) kuzatilgan. C-11, C-12 uglerod atomlariga oid signallar 197.774, 128.36 m.u.larda, molekuladagi C-30 atom signali 173.56 m.u.da, atsetat qoldig'idagi metil guruhi uglerodi 22.98 m.u.da kuchli maydon sohada karbonil uglerodi esa 173.56 m.u.da kuchsiz maydon tomonda namoyon bo'lgan. Bundan tashqari benzol halqadagi uglerod atomlari kuchsiz maydon sohalarda 134.068 (C-1'), 127.755 (C-2'), 129.83 (C-3'), 129.2 (C-4'), 126.79 (C-5'), 127.86 (C-6'),m.u.larda kuzatilgan.



6-rasm.3-O-AGIK 2,4-DXA amidining ¹³C YaMR natijalari

Barcha uglerod atomlarining kuzatilgan signallari molekulaning tuzilishini tasdiqlaydi. 37.4 (C-1), 22.98 (C-2), 79,45 (C-3), 38.00 (C-4), 54.12 (C-5), 18.17 (C-6), 32.01 (C-7), 44.6 (C-8), 60.87 (C-9), 36.40 (C-10), 197.77 (C-11), 128.36 (C-12), 168.98 (C-13), 42.59 (C-14), 28.13 (C-15), 27.54 (C-16), 31.26 (C-17), 47.19 (C-18), 40.68 (C-19), 38.00 (C-20), 30.65 (C-21), 37.01 (C-22), 28.13 (C-23), 16.83 (C-24), 16.31 (C-25), 18.22 (C-26), 22.98 (C-27), 28.35 (C-28), 29.61 (C-29), 173.56 (C-30), 134.068 (C-1'), 127.755 (C-2'), 129.83 (C-3'), 129.2 (C-4'), 126.79 (C-5'), 127.86 (C-6'), 21.42 (CH₃COO), 171.18 (CH₃COO).

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ushbu ilmiy tadqiqot ishida ISK, IMK, NSK, NOK va GIKning karboksil guruhi bo'yicha hosilalari sintezi amalga oshirildi. Bunda avval GIKning C-3 holatdagi OH guruhini himoyalangan holda karboksil guruhi bo'yicha xlorangidrid usulida amidlari sintez qilindi hamda ularning tuzilishlari, spektral xususiyatlari aniqlandi.

Dissertatsiyaning "**Geterosiklik birikmalar hosilalarining o'simliklar o'sish va rivojlanishi hamda zamburug'larga qarshi ta'siri**" deb nomlangan uchinchi bobida olingan barcha moddalarning biologik faolliklarini tuzilishga bog'liqligi tahlil qilingan.

ISK, IMK, NSK, NOK va 3-O-AGIKning ayrim geterohalqali triazol, diazol hamda 2,4-dixloranilin bilan sintez qilingan amidlarining kuzgi bug'doyning (*Triticum aestivum* L.) unish-rivojlanish ko'rsatkichlariga ta'sir xususiyatlari aniqlandi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishlari Guliston davlat universiteti Agrobiteknologiyalar va biokimyo ilmiy tadqiqot institutining bir guruh olimlari (Kuliyev T.X., Jumanov O.T., Xusanov T.S.) bilan hamkorlikda bajarilgan. O'rganilgan 13 ta amid eritmalaridan donning bo'rtishini jadallashtiruvchi va unuvchanligini oshiruvchilar: 3-O-AGIK 3-API; IMK 3-AT; IMK 4-AA; ISK 3-API; ISK 3-AT; ISK 2,4-DXA tanlab olindi. Mazkur preparatlardan: 3-O-AGIK 3-API, IMK 4-AA, ISK 2,4-DXA donning bo'rtishiga va unuvchanligiga ta'sir

darajasi eritma konsentratsiyasi 10^{-5} M va IMK 3-AT, ISK 3-API, ISK 3-AT da 10^{-6} M teng bo'lganida ijobiy, deb topildi. Ushbu preparatlar va ularga tegishli eritma konsentratsiyalari kuzgi bug'doy donining bo'rtishiga unuvchanligigaijobiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada donning unuvchanligi nazoratga nisbatan 3-4 % ga oshishiga sababchi bo'ldi, deb xulosa qilindi.

Tadqiqotlarning navbatdagi bosqichidasintez qilingan moddalarning IMK 3-AT (10^{-6} M), IMK 4-AA (10^{-5} M), ISK 3-API (10^{-6} M) va 3-O-AGIK 3-API amid (10^{-5} M)larining bug'doy hosildorligiga ta'sirini o'rganish amalgaoshirildi. Buning uchun standart uslubda dala sharoitida har birining yuza maydoni 25 m^2 ni tashkil qiluvchi 1 ta nazorat va 4 ta sinov-tajriba maydonchalari (umumiy 250 m^2) tashkil qilindi. 10^{-5} M hamda 10^{-6} M konsentratsiyada ekishdan oldin donga ishlov berish, shuningdek vegetatsiya davrida naychalash fazasida o'simlik ustki organlariga sepish uslubida foydalanildi. Natijada, nazoratda o'rta hisobda 60.98 s/ga bug'doy doni olingan bo'lsa, tajriba variantlari ushbu ko'rsatkich: IMK 3-ATda 69,50 s/ga; IMK 4-AA da 72,31 s/ga, 3-O-AGIK 3-API da 63,32 s/ga va ISK 3-API da 75,42 s/ga ga teng bo'ldi. Olingan natijalarni nazorat bilan taqqoslaganimizda IMK 3-ATda tajriba variantida nazoratga nisbatan 8,52 s/ga (13,97%), IMK 4-AA da 11,33 s/ga (18,57%) va ISK 3-API amidida 14,44 s/ga (23,67%) ko'p hosil olinganligi aniqlandi.

ISK 3-API amidi *Fusarium* turkumiga mansub *Fusarium poae* va *Fusarium oxysporum* potogenzamburug'lari uchun 2 mg/l konsentratsiyadan boshlab o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. *Fusarium poae* da 9 mm va *Fusarium oxysporum* da esa shu konsentratsiyada 12 mm ga teng bo'lib, eng yuqori natijani qayd qildi. 100 mg/l va 500 mg/l konsentratsiyali eritmaları zamburug'larni o'sishini to'xtatish maydoni mos ravishda 13 va 15 mm ga teng bo'ldi. Nazorat sifatida olingan karbendazimning

500 mg/l konsentratsiyada mikroorganizmini o'sishini to'xtatish maydoni mos ravishda 4 va 7 mm ga teng bo'ldi, bu esa ISK 3-API amidi o'simlik o'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda potogen *fusarium poae* va *fusarium oxysporum* zamburug'larga qarshi fungitsidlik xususiyati ham bordeb xulosa qilish mumkin.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida bug'doygatanlab olingan amidlarning 10^{-5} M li konsentratsiyada purkash yo'li bilan ishlov berilganda, poyasi va bargi tarkibidagi salitsil kislota miqdori ortganligi aniqlandi. Bug'doy poyasi ekstraksiyasidan salitsil kislota miqdori YuSSX qurilmasi yordamida aniqlandi. Bunda IMK 4-AA variantdagi birikma bilan ishlov berilgan bug'doy namunasi tarkibidan eng ko'p miqdorda (2.93 mg/100g) salitsil kislota mavjudligi isbotlandi.

Dissertatsiyaning "**Tajriba qismi**" deb nomlangan to'rtinchi bobida olib borilgan tadqiqot ob'yektlari, foydalanilgan asbob uskunalar, GKMAT dan GIK, 3-O-AGIK olish va tozalash usullari, ISK, IMK, NSK, NOK, 3-O-AGIKlarning amidlari sintezi usullari keltirilgan.

XULOSALAR

1. Ilk bor ISK va IMK ning triazol, diazol hamda 2,4-dixloranilin bilan 8 ta yangi amidlari (ISK 4AA, ISK 3-API, ISK 3-AT, ISK 2,4-DXA, IMK 4AA, IMK 3-API, IMK 3-AT, IMK 2,4-DXA) sintez qilinib, fizik-kimyoviy parametrlari aniqlandi.

2. ISK va IMK ning triazol, diazol hamda 2,4-dixloranilin bilan sintez qilingan amidlarining tuzilishi UB-, IQ-, ^1H , ^{13}C YaMR-spektroskopiya hamda mass-spektrometriya usullari yordamida tasdiqlangan va sintez qilingan amidlarning ^1H YaMR-spektridagi proton signallari 8.53–8.9 m.u. diapazonda kuzatilib, nazariy jihatdan hisoblangan ^1H signallariga mos kelishi aniqlandi.

3. Absolyut benzol muhitida NSK va NOK triazol hamda diazol 2,4-dixloranilin bilan yangi sakkizta amid hosilalari sintez qilinib, ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari aniqlangan va tuzilmalari UB-, IQ-, ^1H , ^{13}C YaMR-spektroskopiya hamda mass-spektrometriya usullari orqali tasdiqlandi.

4. Birinchi marotaba 3-O-AGIKning 3-API va 2,4-DXA bilan yangi amidlari(2 ta) sintez qilinib, fizik-kimyoviy kattaliklari aniqlangan va ularning kimyoviy tuzilishlari UB-, IQ- ^1H , ^{13}C YaMR-spektroskopiya hamda mass-spektrometriya usullari yordamida tasdiqlangan va sintez qilingan amidlarning proton signallari ^1H -YaMR-spektrida 8.905 m.u da keng shakldagi singlet holatda nomoyon bo'lishi isbotlangan.

5. Sintez qilingan ISK 3-API, IMK 4-AA, IMK 3-AT birikmalar eritmalari (10^{-5} - 10^{-6}M li) bilan bug'doy donlarini ekishdan oldin ishlov berilib va nihollarga vegetativ rivojlanish bosqichlarida sepilganda, hosildorlik nazoratga nisbatan mos ravishda 14,44 s/ga (23,67%), 11,33 s/ga (18,57%), 8,52 s/ga (13,97%) ortganligi hamda IMK 4-AA amidi tasirida bug'doy namunasi tarkibida eng ko'p miqdorda (2.93 mg/100g) salitsil kislota mavjudligi isbotlandi.

6. Sintez qilingan ISK 3API amidi (500mg/l) patogen zamburug'larni (*Fusarium poae* va *Fusarium oxysporum*) o'sishini to'xtatish maydoni mos ravishda 13-15 mm ni tashkil etdi, bu ko'rsatkich nazorat sifatida olingan karbendazim preparatiga nisbatan 3,25-2,15 marotaba yuqori natijalarni qayd etilganligi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
МИНИСТЕРСТВЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ПРИ ГУЛИСТАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ № DSc.03/05.06.2020.К/В.91.03**

ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХУДОЙНАЗАРОВ МУХРИДДИН ШУХРАТ УГЛИ

**ДИАЗОЛЬНЫЕ И ТРИАЗОЛЬНЫЕ ПРОИЗВОДНЫЕ
ФИТОГОРМОНОВ С ГЕТЕРОЦИКЛИЧЕСКОЙ СТРУКТУРОЙ И ИХ
БИОЛОГИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ**

02.00.10 – Биоорганическая химия (химия)

АВТОРЕФЕРАТ

ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)

ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при высшем образовании, науке и инновациях Республики Узбекистан за номером B2024.4.PhD/K895

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.siyes.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Джураев Тулкин Арзикулович**
PhD, старший научный сотрудник

Официальные оппоненты: **Шомуротов Шавкат Абдуганиевич**
доктор химических наук

Маулянов Салихжан Алимджанович.
доктор химических наук доц.

Ведущая организация: **Ташкентский химико-технологический институт**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней DSC.03/05.06.2020.К/В.91.03 при Гулистанском государственном университете « ____ » _____ 2025 года в _____ часов. (Адрес: 140100, г. Гулистан, 4-й микрорайон, университетский кампус. Тел.: (99867) 225-24-90, e-mail: gdu_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Гулистанского государственного университета (зарегистрирована под номером _____). (Адрес: 120100, г. Гулистан, 4-й микрорайон, университетский кампус. Тел.: (99866) 233-38-73, e-mail: sies_info@edu.uz).

Автореферат диссертации распространён «» _____ 2025 года.

(Протокол реестра № _____ от «» _____ 2025 года).

Х.Х.Кушиев

Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней, д.б.н., профессор

У.К. Абдурахманова

Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней, д.б.н., профессор

Н.Р.Хашимова

Председатель Научного семинара при Научном совете
по присуждению ученых степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире постоянно растёт спрос и потребность в экологически безопасных натуральных продуктах. В связи с этим особое внимание уделяется исследованиям в области химии, направленным на создание новых препаратов, которые эффективно регулируют рост и развитие растений, являющихся источником продовольствия, противодействуют их заболеваниям и являются экологически безвредными. Важное значение имеет разработка таких препаратов с точной и полной информацией об их структуре и рекомендация их к использованию. В этом контексте изучение фитогормонов, играющих ключевую роль в развитии растений, и их производных, а также исследование их действия рассматриваются как одна из актуальных задач. Таким образом, выявление и синтез новых физиологически активных веществ, повышающих урожайность растений, регулирующих их рост и развитие, а также обладающих биостимулирующими свойствами, имеют важное научное и практическое значение в решении существующих проблем в этой области.

